

## TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA ENERGIYA TEJAMKORLIK MUAMMOLARI

*Xamidov Sardorbek*

*O'zbekiston Respublikasi*

*Farg'ona viloyati O'zbekiston tuman*

*1-son kasb hunar maktabi*

*ishlab chiqarish ta'lim ustasi*

**Annotatsiya:** *Elektr energiyasi inson faoliyatining barcha sohalarida qo'llaniladi. Ishlab chiqarish qurilmalari, asosan, elektr dvigatellari bilan harakatlanadi. Barcha sanoat korxonalarida elektr energiyasi iste'molchilari hisoblanadi.*

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq energiyadan va energetik resurslardan oqilona foydalanishga e'tibor berib kelinmoqda. To'qimachilik sanoati korxonalarida ham ishlab chiqarilayotgan mahsulotning energiya xajmdorligini kamaytirish muammosi texnik progress masalalarini yechishda asosiylaridan xisoblanadi.

Ushbu sanoat tarmog'i o'z tarkibida yarimfabrikatlar va xom ashyolarni qayta ishlashning ayrim jarayonlarini bajaradigan bir qator ishlab chiqarish ob'ektlari mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Hozirgi paytda ushbu soxaning o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olish uslubi yo'qligi tufayli hisob-kitoblar tayyor maxsulotni soni va tarmoqdan ist'emol qilinayotgan energiyaning umumiy ko'rsatkichlari bo'yicha olib borilmoqda va ko'p hollarda ushbu hisob-kitoblar texnologik jixozlar ishlash rejimining maqbul darajasini, ko'p sonli texnologik va ishlatish omillarini elektr energetika ko'rsatkichlariga ta'sirini, texnologik jarayonlarning hanuzgacha ochilmagan potentsial imkoniyatlari hisobga olmagan holda olib borilmoqda.

Tabiiyki bunday xisob-kitoblarning natijalari ko'p hollarda aniq emas va elektr iste'molining xaqiqiy darajasini aks ettirmaydi.

Elektr iste'moli jarayonlarini kompleks ravishdagi chuqurroq tadqiqoti juda ham oz sonli korxonalaridagina olib berilmoqda.

Sanoat korxonalarida o'tkazilgan tadqiqotlar tajribasi shuni ko'rsatdiki ishlab-chiqarishning asosiy texnologik agregatlarining elektr iste'moli rejimlarini tadqiq etish xal etuvchi bosqich xisoblanadi.

Respublikamizdagi to'qimachilik sanoati korxonalarini asosiy texnologik agregatlarining elektr iste'molini tadqiq etish va maqbul rejimlarini ishlab chiqish uchun quyidagi masalalarni yechish lozim:

– ishlab-chiqarishning umumiy energetik ko'rsatkichlarini shakllantirishning bazasi bo'lgan texnologik jihozlarni elektr yuritmalarining energetik rejimlarini tadqiq etish;

elektr iste'moli va elektr yuklamalarni o'zgarish qonuniyatlarini aniqlash;

– sanoatning ipakchilik va ip gazlama sohalarida ishlatilayotgan jihozlarda energetik ko'rsatkichlarni o'lchash;

– korxonaning va butunlay majmuaning matematik modellarini, agregatlarning normativ tavsiflarini olish maqsadida tajriba-statistik ma'lumotlarga kompyuterda matematik ishlov berish;

– elektr iste'moli ko'rsatkichlariga ta'sir etadigan texnologik va ishlatish omillarini tadqiq etish xamda elektr energetik baholashni ishlab chiqish.

Korxonalarda energiya sarfini kamaytirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishda, matematik modellash va statistikaning tizimli tahlili usuli qo'llanildi.

Shu maqsadda texnologik jihozlarning elektr iste'moli va elektr yuklamalarining o'zgarish qonuniyatlari aniqlanishi va energetik rejimlari tadqiq etilishi, energiya va resurslarini iqtisod qilishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash bilan energetik ko'rsatkichlarni bashorat qilish, hisoblash va taxlil kilish uslublari ishlab chiqilishi kerak.

Sanoat ishlab chiqarishining energetik ko'rsatkichlarini elektr yuklamalarini o'zgarish xarakteri va elektr iste'moli darajalarini shakllantirish asosida korxonlardagi elektr yuritmalar va boshqa elektr iste'mol qiladigan qurilmalarning ishlash rejimi yotadi.

Ip gazlama va shoyi to'qish korxonalarida eng ko'p miqdordagi energiyani (40-70%) dastgox mashinalarning elektr yuritmalari iste'mol qiladi. Ko'rsatilgan mashinalar ancha murakkab kinematik sxemaga ega bo'lganligi va ko'p sonli ishqalanuvchi yuzalarga ega bo'lganligi uchun, iste'mol qilinayotgan quvvatning ko'p qismi ishqalanish kuchlarini yengishga sarf bo'ladi bu esa iste'mol qilinayotgan quvvatning xisoblab aniklash imkonini bermaydi. Buning uchun eksperimental tadqiqotlar asosida yuqorida ko'rsatilgan har bir turdagi mashinalar elektr dvigatellari o'qidagi iste'mol qilinayotgan quvvatning emperik ifodasi olish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. "B.E.Yusupov "Bino va inshoatlarda elektr ta'minoti", Toshkent 2023 yil.
2. A.N.Qodirov "Sanoat korxonalarining elektr ta'minoti" Toshkent 2021yil.